

2. Abdullayev R. Qo‘qon xonligida kitobat ishi va kutubxonalar tarixi. Monografiya. R.Abdullayev. – Toshkent: “Dimal” nashriyoti, 2025.
3. «Қўқон» давлат музей-қўриқхонаси тўплами. Toshkent: 2022. – B. 111.
4. Ҳакимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – Тошкент: Davr Press, 2013.

TEPAQO‘RG‘ON YODGORLIGINING ARXEOLOGIK O‘RGANILISHI

Turdali Nuridinov

QDU Tarix kafedrası dotsenti, PhD.

Xushnud Xaydaraliyev

QDU 2-bosqich talabasi

Annotatsiya.

Mazkur maqolada respublikamizning qadimiy shaharlaridan biri hisoblangan Qo‘qon shahridagi Tepaqo‘rg‘on arxeologik yodgorligining o‘rganilish tarixi, olib borilgan arxeologik tadqiqotlar hamda uning tarixiy-madaniy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon, tarixiy yodgorliklar, Tepaqo‘rg‘on, arxeologik tadqiqot, paleotchilar guruhi, tosh buyumlar, Sariqo‘rg‘on yodgorligi.

Annotation.

This article provides a scholarly analysis of the history of research, archaeological investigations, and the historical-cultural significance of the Tepaqo‘rg‘on archaeological monument located in Qo‘qon, one of the ancient cities of our republic.

Keywords: Kokand, historical monuments, Tepakurgan, archaeological research, paleontological group, stone artifacts, Sarykurgan monument.

Kirish. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi o‘tgan davr mobaynida o‘zligimizni anglash, tariximizni o‘rganish va uni haqqoniy yoritishga katta e‘tibor berilmoqda. Respublikamiz ko‘hna shaharlarining tarixini o‘rganish va yurtimizning boy tarixini dunyoga tanitish ishlari keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Qo‘qon shahri tarixini shu jumladan, arxeologik yodgorliklarini o‘rganish va ularni ilmiy muomalaga kiritish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shaharning yoshini aniqlash bo‘yicha bir qator farazlar ilgari surilganligiga qaramasdan, mazkur masala o‘zining ilmiy yechimini topgani yo‘q. Bu masalani yechishda arxeologik tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Natija va muhokama. Bundan o‘n yil oldin Qo‘qon shahri va uning atrofida

mavjud bo‘lgan yodgorliklarda arxeologik tadqiqotlar izlanishlar uch yo‘nalishda yo‘lga qo‘yildi. Shaharning yoshini aniqlash maqsadida birinchi guruh Qo‘qon shahrida joylashgan Tepaqo‘rg‘on, ikkinchi guruh, Buvayda tumanidagi Poshshopirim yodgorliklarida keng ko‘lamli qazish ishlarini o‘tkazishdi. Uchinchi guruh esa (Qo‘qon paleolitchilar guruhi), Qo‘qon va uning atrofidagi hududlarda qadimgi tosh davriga oid yodgorliklarni qidirib topish ishlari bilan shug‘ullandi.

Ma‘lumki, Farg‘ona vodiysi hududlari ibtidoiy davrlardanoq odamning yashashi hamda rivojlanishi uchun juda qulay tabiiy geografik sharoitlarga ega bo‘lgan maskanlardan biridir. So‘x daryosining yuqori havzasidan, nafaqat O‘zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyoda eng qadimgi madaniy yodgorliklar sanaladigan Selung‘ur, Chashma kabi ilk paleolit davriga oid makonlar topib o‘rganilgan.

O‘rta paleolit (100-40 ming yillar) bosqichiga oid yodgorliklar M. R. Qosimov tomonidan 1964 va 1965-yillarda Cho‘ng‘ara qishlog‘i yaqinidagi So‘x daryosining uchinchi havzasidan ham topildi. Bu yerdan to‘rtta punkt aniqlangan. Yig‘ilgan materiallar orasida o‘zak toshlar, uchirindilar va plastinalar mavjud (jami 31 ta). Bundan tashqari, mustye davri materiallari Sariqo‘rg‘on qishlog‘idan 2,5 km janubroqdan ikkita makonda ham aniqlangan. Bu yerdagi qayroqli tepaliklardan 600 kv. m. joydan 200 dan ziyod tosh buyumlar yig‘ib olingan.

Mezolit davriga oid bir qator yodgorliklar Farg‘ona viloyatining So‘x tumani hududidan topilgan va ular Obishir mezolit (miloddan avvalgi IX-VII ming yilliklar) madaniyatining shakllanishiga zamin hozirlagan.

Ko‘rinib turibdiki, Farg‘ona viloyati hududidan tosh davrining barcha bosqichlariga oid yodgorliklar, madaniyatlar aniqlangan. Biroq, ushbu hududlardan paleolit davrining so‘nggi bosqichiga (40-12-ming yilliklar) oid yodgorliklar topilmagan edi.

Qo‘qon paleolitchilar guruhi O‘zbekiston tumanidagi Jonobod qishlog‘ining yuqori chekkasida joylashgan qayroqli toshloq hududlarda arxeologik qidiruv ishlarini olib bordi. Qadimda Qo‘qon va uning atrofi suv bilan qoplanganligi va aynan ushbu qayroqli tepaliklar uning sohili bo‘lganligi ehtimoldan xoli emas. Qadimgi tosh davrida yashagan ibtidoiy odamlar esa ushbu soxillarga tashrif buyurishib, ovchilik, terimchilik, teriga va suyakka ishlov berish ishlari bilan shug‘ullanganlar. Ehtimol, qayroqli tepaliklarda ularning mavsumiy manzilgoxlari ham bo‘lgan, biroq, keyingi davrlardagi qor-yomg‘ir suvlari tepaliklarni tez-tez yuvib turganligi tufayli, bu erda mavjud bo‘lgan ibtidoiy makonlar pastlikka oqib ketgan bo‘lishni mumkin. Eng muhimi, bu yerdagi tosh buyumlari orasidan paleolit davri odamlari tomonidan ishlov berilgan tosh buyumlarning topilishi bo‘ldi. Shunday qilib, Jonobod qishlog‘ining yuqori qismidan toshdan yasalgan, teriga,

yog‘ochga hamda suyakka ishlov berish uchun mo‘ljallangan tishsimon retushli, o‘yib-kertib ishlangan tosh qurollar, hamda xayvon suyaklariga ishlov beradigan tosh kesgichlar topildi. Ushbu tosh buyumlar ishlanish texnikasiga ko‘ra, so‘nggi paleolit davrining boshlari, ya‘ni miloddan avvalgi 40-ming yilliklar bilan sanalishi mumkin. Demak, Farg‘ona tarixida birinchi marta Qo‘qon atrofidan so‘nggi paleolit davriga oid arxeologik materiallar aniqlandi.

Uchko‘prik tumaniga qarashli Sariqo‘rg‘on qishlog‘i hududidan oqib o‘tadigan So‘x daryosining o‘ng qirg‘og‘i terrasalarida ham qidiruv ishlari olib borildi. Natijada, daryoning uchinchi terrasasidan so‘nggi paleolit davrida yashagan ajdodlarimiz tomonidan ishlov berilgan o‘nlab tosh buyumlar yig‘ib olindi. Ushbu buyumlar, asosan, qora yoki kulrang bazalt toshlardan va kremniylashgan tosh jinslaridan ishlangan nukleuslar, tosh qirgichchalar va kesgichlarlardan iboratdir. Ta‘kidlash joizki, yuqorida tilga olingan tosh buyumlarning barchasi so‘nggi paleolit davri uchun harakterli bo‘lib, bu Qo‘qon atrofidan topilgan ushbu davrga oid ikkinchi yodgorlik xisoblanadi. Ushbu topilmajoyga Sariqo‘rg‘on-1 nomi berildi.

Sariqo‘rg‘on yodgorligiga yaqin joydan o‘rta paleolit davriga oid (miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklar) bir nechta tosh buyumlari topildi. Ular ham qora rangli bazalt toshlardan ishlangan qo‘pol tosh nukleuslar va tosh pichoqlardan iborat

Shunday qilib, Qo‘qon va uning atrofidagi hududlardan yuqorida tilga olingan so‘nggi paleolit davriga oid yodgorliklarning topilishi va ilmiy muomalaga kiritilishi Farg‘ona vodiysining tosh davri tarixidagi yetishmayotgan bo‘shliqlarni to‘ldiradi.

Arxeologik izlanishlar bevosita Qo‘qon shahri hududida ham olib borildi. Qo‘qon shahrining moddiy madaniyati tarixida Tepaqo‘rg‘on yodgorligi alohida o‘rin tutadi. Tepaqo‘rg‘on yodgorligi arxeologik jixatdan o‘rganildi va natijada bu joydan ilk o‘rta asrlar (V-VII asrlar)ga oid devorlar va ularga tutash xonalar, yo‘laklar ochildi. Keyingi qazishmalar davomida devorlarning tuzilishi to‘liq o‘rganilib, ular qadimgi binokorlar tomonidan maxalliy hududning o‘ziga xos iqlim sharoitlarini hamda seysmologik holatni hisobga olgan holda bunyod etilganligi ma‘lum bo‘ldi. Ushbu devorlarning poydevor qismi 20 smlik pishitilgan loy bilan qotirilgan va uning orasiga devorning uzunasi bo‘ylab, har 23 sm oraliqda yog‘och qo‘yilgan. Bu holat devorlarni bir-biriga yanada mustahkam bog‘lash va ularning zilzilalarga chidamliligini kuchaytirish maqsadida amalga oshirilgan.

Keyinchalik, Tepaqo‘rg‘onda amalga oshirilgan qazishmalar 150 m² maydonni qamrab oldi. Qazishma ishlari yer satxidan 9,5 metr chuqurlikkacha olib borildi va qator qiziqarli ma‘lumotlar qo‘lga kiritildi. Xususan, yuqorida qayd

etilgan devorlar va xonalar tagidan yanada qadimiy davrlarga, aniqrog‘i eramizning boshlariga (milodiy I asr) oid xonalar, maishiy o‘choqlar hamda sopol pishirish xumdonlarining qoldiqlari topildi. Xuddi shunday xonalardan biri yer satxidan 7 metr chuqurlikda qayd etilib, xona devorlari xom g‘isht va loydan bunyod etilgan. Ushbu xonaning poli ham loy bilan suvalgan bo‘lib, uning markazida tuxumsimon shakldagi o‘choq joylashgan. Xonaning ichkarisidan eramizning boshlariga oid yuzasiga qizil rang berilgan, turli xil maishiy sopol idishlar, qozon siniqlari, xumlar hamda xonaki hayvonlarning suyak qoldiqlari topildi. Qo‘lga kiritilgan sopol idishlar qoldiqlari o‘zining bejirim naqshinkorligi va nafisligi bilan ajralib turadi. Asosan, kulolchilik charxida yasalgan bunday idishlar ishlanish texnikasi va tipologik xususiyatlariga ko‘ra, shaharlik ustahunarmandlar tomonidan ishlanganligi ko‘zga tashlanadi. Bundan tashqari, qadimgi shahar madaniyati hunarmandchiligiga xos temir va misdan ishlangan buyumlar, urchuqlar hamda tegirmon toshlarining qoldiqlari ham topildi.

So‘nggi qazishma ishlari Tapaqo‘rg‘on yodgorligining shimoliy-g‘arbiy tomonida, shartli ravishda “arki-a‘lo” deb nomlangan qismida olib borildi. Bu yerdan mudofaa devorining qoldiqlari aniqlandi. Ushbu devor mahalliy relyefdan kelib chiqib qurilgan bo‘lib, uning burilish qismida diametri 3,5 metrga yetadigan paxsa burj yordamida mustahkamlanganligi aniqlandi.

Xulosa. Xulosalarga ko‘ra, milodiy era boshlarida urbanizatsiyalashgan qarorgoh negizida, hozirgi Tapaqo‘rg‘on yodgorligi o‘rnida qadimgi shahar shakllangan bo‘lib, u uzluksiz ravishda ilk o‘rta asrlarga qadar rivojlanib kelgan. Keyinchalik, arablar bosqini arafasida shahar Tapaqo‘rg‘ondan boshqa joyga ko‘chganligi kuzatiladi. Arxeologik tadqiqot natijalari Farg‘ona vodiysida, xususan, Qo‘qon hududida shaharsozlik madaniyatining rivojlanish jarayonlarining asosiy jixatlarini ko‘rsatib beradi, deb xisoblash mumkin. Arablar bosqinidan keyingi davrda ijtimoiy-siyosiy hayotda katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Natijada shaharning ma‘muriy boshqaruv idoralari boshqa hududga ko‘chirilgan bo‘lishi mumkin. Fikrimizcha, mazkur hududlardan biri hozirgi Furqat tumanida joylashgan Qilich pirixon ota manzilgohi bo‘lishi mumkin. Ushbu manzilgohning vujudga kelishi payg‘ambar avlodlariga borib taqaladi. Tepalik hozirgi kunda qabriston vazifasini bajarmoqda. Uning balandligi bir necha o‘n metrlikini hisobga oladigan bo‘lsak, ushbu yodgorlik o‘z qo‘lida bir necha madaniy qatlamlarni saqlab qolgan bo‘lishi mumkin. Tepalikni arxeologik jihatdan tadqiq qilinishi o‘rta asrlar Qo‘qon va uning atrofi tarixiga ko‘plab ma‘lumotlarni qo‘lga kiritish imkonini bergan bo‘lardi. Rivojlangan o‘rta asrlar davrida mintaqaning ma‘muriy markazi hozirgi Qo‘qon hududiga shahriga ko‘chgan bo‘lishi mumkinligi haqida tarixiy manbalar, birinchi navbatda arab sayyohlarining ma‘lumotlari asosida

xulosa chiqarishimiz mumkin. Mazkur davrda markazlashgan davlatlarning taraqqiy etishi natijasida butun O‘rta Osiyoda bo‘lgani kabi Farg‘ona vodiysida ham ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot rivojlandi. Bu esa o‘z navbatida hududda shahar madaniyatining rivojlanishiga olib keldi. Shu davrda hozirgi Qo‘qon hududi yirik siyosiy, iqtisodiy madaniy markazlardan biriga aylangan edi, deb xulosa chiqarish imkonini beradi. Hozirga qadar ilmiy iste‘molga kiritilmagan arxeologik yodgorliklarni o‘rganish, mavjud ma‘lumotlarni qiyosiy tahlil qilish bir qator yechimini kutayotgan masalalarga oydinlik kiritish imkonini bergan bo‘lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-yanvar “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob‘yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi F-5181-son Farmoyishi // Elektron resurs: <https://lex.uz/docs/-3506332>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyul “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-338-son Qarori // Elektron resurs: <https://lex.uz/uz/docs/-6137065>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyul “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–238-son Qarori // Elektron resurs: <https://www.lex.uz/uz/docs/-6549286#-7040494>
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-sentabr “Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” 792-son Qarori // Elektron resurs: <https://lex.uz/docs/-4524476>